



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 78 sahifa,
1-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining innovatsion pedagogik kompetentligini rivojlantirish mexanizmi	10
Mirzaraxonova Maftuna Ibroximjon qizi	
Elementlarini integratsiya qilish: nazariy va amaliy yondashuv	13
Ne'matov Karimjon Shavkat o'g'li	
O'qish savodxonligi darslarida kitobxonlik kompetensiyasini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari ...	19
Mahmudova Shoira Shavkat qizi	
O'zbek milliy musiqasi asosida talablarda estetik did va ijro madaniyatini rivojlantirish metodikasi.....	25
Gadoyeva Muborak Jumaqulovna	
O'quvchilarning yozuv kompetensiyasini baholash mezonlarini takomillashtirish masalalari.....	30
Abdurashidova Xafiza Abdurashidovna	
Xurshid Do'stmuhammad qissalarida rivoyatchi strategiyasi.....	34
Uzoqova Nargiza Yuldosh qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirishda innovatsion texnologiyalarining ahamiyati	37
Eshpulatov Shakir Nabiyevich, Ahrorova Ozoda Amriddinovna	
"Xonada o'simliklarni o'stirish" intellekt xaritasi (Mind Map) yordamida o'quvchilarda ekologik tarbiya va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish	41
G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlarning tashkiliy-pedagogik jihatlari.....	46
Joldasov Ixtiyor Suyundikovich	
Boshlang'ich sinflarda iqtisodiy tarbiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari	50
N. Asadov	
Bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda kreativ kompetentlik va kasbiy muvaffaqiyat o'rtasidagi bog'liqlik mezonlari.....	53
G. Xamidova	
Gamifikatsiya elementlarining bakalavr talabalarini raqamli resurs yaratishga motivatsiyasiga ta'siri	56
Maxkamova Dilshodaxon Xabibjon qizi	
The Influence of Family Parenting Style on the Formation of Primary School Students' Personality	59
Berdiyeva Mohloroyim Mirzohid qizi	
Noto'liq oilalardagi onalarning tarbiyaviy uslublari va farzandlarining ijtimoiy-psixologik moslashuvi (O'zbekiston namunasida).....	64
Ismoiljonov Ravshan Baxtiyor o'g'li	
Raqamli pedagogika sharoitida interfaol ta'lim metodlari asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish.....	69
Jumaniyozova Donoxon Olimboyevna, Bekmuratova Muhayyo Uralbayevna	
Matematika ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning metodik asoslari.....	73
Mirzayeva Shahlo, Qodirova Muattar Ilhom qizi, Rovshanova Yulduz Shovkat qizi	

BOSHLANG'ICH SINFLARDA IQTISODIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARI

N. Asadov

JDPU dotsenti

Annotatsiya: Boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtisodiy tarbiyani shakllantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Interfaol metodlar, didaktik o'yinlar, loyiha asosida o'qitish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'quvchilarda iqtisodiy tafakkur, tejamkorlik, tadbirkorlik va iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirishdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanish orqali iqtisodiy tarbiya samaradorligini oshirish masalalari ilmiy jihatdan asoslanadi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy tarbiya, boshlang'ich ta'lim, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, iqtisodiy savodxonlik, didaktik o'yinlar, AKT, innovatsion yondashuv.

Abstract: The theoretical and practical foundations of using modern pedagogical technologies in the formation of economic education among primary school students are examined. The role of interactive methods, didactic games, project-based learning, and information and communication technologies in developing economic thinking, thriftiness, entrepreneurial skills, and financial literacy is highlighted. In addition, the effectiveness of economic education through the implementation of innovative approaches in primary education is scientifically substantiated.

Key words: economic education, primary education, pedagogical technologies, interactive methods, financial literacy, didactic games, ICT, innovative approach.

Аннотация: Рассматриваются теоретические и практические основы использования современных педагогических технологий в формировании экономического воспитания учащихся начальных классов. Освещается роль интерактивных методов, дидактических игр, проектного обучения и информационно-коммуникационных технологий в развитии экономического мышления, бережливости, предпринимательских качеств и экономической грамотности школьников. Также научно обосновываются вопросы повышения эффективности экономического воспитания посредством применения инновационных подходов в системе начального образования.

Ключевые слова: экономическое воспитание, начальное образование, педагогические технологии, интерактивные методы, экономическая грамотность, дидактические игры, ИКТ, инновационный подход.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar yosh avlodni nafaqat bilimli, balki hayotiy ko'nikmalarga ega, iqtisodiy jihatdan ongli va raqobatbardosh shaxs sifatida tarbiyalashni talab etmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning shaxsiy sifatлари, dunyoqarashi va asosiy hayotiy tushunchalari shakllanadigan eng muhim davr hisoblanadi.

Iqtisodiy tarbiya boshlang'ich sinf o'quvchilarida tejamkorlik, mehnatni qadrlash, resurslardan oqilona foydalanish, vaqtni to'g'ri taqsimlash kabi muhim hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu jarayon faqat nazariy bilim berish bilan cheklanmay, balki amaliy faoliyat orqali mustahkamlanishi lozim.

Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash iqtisodiy tarbiya samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Interfaol metodlar, loyiha asosida o'qitish, didaktik o'yinlar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o'quvchilarda iqtisodiy tafakkurni rivojlantirishga imkon yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich sinflarda iqtisodiy tarbiyani shakllantirish masalasi pedagogika fanida muhim yo'nalishlardan biri sifatida o'rganib kelinmoqda. Ushbu sohada mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan bir qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan.



Xorijiy tadqiqotchilar, jumladan, J. Dewey va L. Vygotskiylarning ishlari ta'lim jarayonida faol o'qitish va ijtimoiy tajriba asosida bilimlarni shakllantirish g'oyalarini ilgari suradi. Ularning fikricha, bola faqat tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki faol bilish jarayonining subyekti hisoblanadi. Bu yondashuv iqtisodiy tarbiyani amaliy faoliyat orqali o'rgatish zarurligini asoslaydi.

Zamonaviy pedagogikada P. Freire va H. Gardner kabi olimlar ham ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlash hamda ko'p qirrali intellektni rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydilar. Bu yondashuvlar boshlang'ich sinflarda iqtisodiy tushunchalarni o'yin, muammo yechish va loyihaviy faoliyat orqali o'rgatish imkonini beradi.

Mahalliy pedagog olimlardan N. Avliyoqulov, S. Mirzayeva, B. Xodjayev va boshqalar ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashning samaradorligini o'rganib, interfaol metodlarning o'quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirishdagi o'rnini asoslab berganlar. Ularning tadqiqotlarida iqtisodiy tarbiyani shakllantirishda o'yin texnologiyalari va hayotiy vaziyatlarga asoslangan o'qitish usullari samarali ekanligi qayd etilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimiga oid me'yoriy hujjatlar va Davlat ta'lim standartlarida ham o'quvchilarda hayotiy kompetensiyalarni, jumladan, iqtisodiy savodxonlikni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Bu esa mazkur mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy tarbiyani samarali shakllantirish uchun an'anaviy yondashuvlardan voz kechib, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan kompleks foydalanish zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida boshlang'ich sinflarda iqtisodiy tarbiyani shakllantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning samaradorligini aniqlash maqsadida nazariy va amaliy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Dastlab, mavzuga oid pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlar, ilmiy maqolalar hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlil qilinib, iqtisodiy tarbiya va pedagogik texnologiyalarning mazmun-mohiyati o'rganildi.

Tadqiqot davomida kuzatish, suhbat, savolnoma va pedagogik tajriba metodlari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtisodiy tushunchalarni o'zlashtirish darajasi hamda interfaol metodlarga bo'lgan munosabati aniqlashtirildi. Shuningdek, didaktik o'yinlar, loyiha asosida o'qitish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilgan dars jarayonlari monitoring qilinib, o'quvchilarning iqtisodiy tafakkuri, mustaqil fikrlashi va amaliy ko'nikmalaridagi o'zgarishlar tahlil etildi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy tahlil, umumlashtirish va statistik qayta ishlash usullari asosida o'rganildi. Tadqiqot natijalari zamonaviy pedagogik texnologiyalarning boshlang'ich sinflarda iqtisodiy savodxonlikni shakllantirishda samarali vosita ekanligini ko'rsatdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy tarbiya – bu o'quvchilarda iqtisodiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularni real hayotda qo'llay olishga o'rgatish jarayonidir. Boshlang'ich sinflarda bu jarayon sodda tushunchalar orqali amalga oshiriladi: pul, mehnat, tejamkorlik, mahsulot, ehtiyoj va resurslar.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rne

Boshlang'ich ta'lim jarayonida iqtisodiy tarbiyani samarali shakllantirish o'quvchilarning yosh xususiyatlari, bilish imkoniyatlari hamda amaliy faoliyatga bo'lgan qiziqishini hisobga olgan holda tashkil etilishini talab etadi. Shu jihatdan zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining samaradorligini oshiruvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Ular o'quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirib, iqtisodiy tushunchalarni hayotiy vaziyatlar orqali o'zlashtirishga yordam beradi.

Interfaol metodlar

Interfaol metodlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtisodiy tafakkurni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi, chunki ular o'quvchini mustaqil fikrlash, tahlil qilish va xulosa chiqarishga yo'naltiradi. "Klaster" metodi orqali o'quvchilar iqtisodiy tushunchalar (pul, mehnat, ehtiyoj, resurs) o'rtasidagi bog'liqlikni vizual tarzda ifodalaydilar. "Aqliy hujum" metodi esa muammoli vaziyatlarga tezkor va ijodiy yechim topish ko'nikmasini shakllantiradi.

"Baliq skeleti" (Ishikava diagrammasi) metodi iqtisodiy muammolarning sabab va oqibatlarini tahlil qilishga yordam beradi. Masalan, "Nima uchun tejamkorlik muhim?" yoki "Oilaviy budjet nima sababdan buziladi?" kabi savollar asosida sabablar tizimli ravishda o'rganiladi. "Juftlikda ishlash" metodi esa o'quvchilarda hamkorlik, fikr almashish va iqtisodiy vaziyatlarni birgalikda tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Didaktik o'yinlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtisodiy bilimlarini amaliy faoliyat orqali mustahkamlashda eng samarali vositalardan biridir. "Do'kon" o'yini orqali o'quvchilar pul muomalasi, xarid qilish va mahsulot qiymatini tushunish ko'nikmalarini egallaydilar. "Bozor" o'yini esa talab va taklif, narx, mahsulot tanlash kabi iqtisodiy tushunchalarni sodda va qiziqarli tarzda o'rgatadi.

“Pulni to‘g‘ri taqsimla” o‘yini o‘quvchilarda budgetni rejalashtirish, daromad va xarajatni farqlash, tejamkorlikka rioya qilish kabi muhim iqtisodiy kompetensiyalarni shakllantiradi. Bunday o‘yinlar bolalarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirib, o‘quv materialini uzoq muddatli xotirada saqlashga yordam beradi.

Loyiha asosida o‘qitish

Loyiha asosida o‘qitish texnologiyasi o‘quvchilarda mustaqil izlanish, ijodiy fikrlash va amaliy muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Boshlang‘ich sinflarda “Mening kichik biznesim”, “Oilaviy budget”, “Maktab do‘koni” kabi kichik loyihalar orqali iqtisodiy tarbiya samarali amalga oshiriladi.

Masalan, “Mening kichik biznesim” loyihasida o‘quvchilar mahsulot tanlash, xarajat va foydani hisoblash, mijoz ehtiyojini aniqlash kabi sodda iqtisodiy jarayonlarni modellashtiradilar. Bu esa ularda real hayotga yaqin iqtisodiy tasavvurlarni shakllantiradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)

AKT vositalari iqtisodiy tarbiyani zamonaviy, vizual va interaktiv shaklda tashkil etishga imkon beradi. Multimedia taqdimotlar, animatsiyalar va video darslar murakkab iqtisodiy tushunchalarni sodda va tushunarli ko‘rinishda ifodalashga yordam beradi.

Shuningdek, interaktiv platformalar va elektron ta‘lim resurslari orqali o‘quvchilar mustaqil ravishda iqtisodiy masalalarni o‘rganishlari mumkin. Bu esa ularning raqamli savodxonligini ham rivojlantiradi va ta‘lim jarayonini individuallashtirish imkonini beradi.

O‘qituvchi faoliyatining ahamiyati

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi iqtisodiy tarbiyani shakllantirish jarayonida markaziy figura hisoblanadi. U faqat bilim beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi, motivator va tashkilotchi sifatida faoliyat yuritadi. O‘qituvchi har bir darsni hayotiy misollar bilan boyitishi, iqtisodiy vaziyatlarni o‘quvchilarga yaqinlashtirishi va ularni mustaqil fikrlashga undashi lozim.

Shuningdek, o‘qituvchi o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda differensial yondashuvni qo‘llashi, ularni iqtisodiy muammolarni hal qilishga jalb etishi muhimdir. Bu jarayon o‘quvchilarda nafaqat iqtisodiy bilim, balki mas‘uliyat, tejamkorlik va ijtimoiy faollik kabi sifatarni ham shakllantiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Boshlang‘ich sinflarda iqtisodiy tarbiyani shakllantirish zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida olib borilganda samarali natijalarga erishiladi. Interfaol metodlar, o‘yin texnologiyalari, loyiha asosida o‘qitish va AKT vositalari o‘quvchilarda iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa ularning kelajakda ongli, mas‘uliyatli va tejamkor shaxs bo‘lib shakllanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni: <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. O‘zbekiston Respublikasi 2025-yil 28-apreldagi Prezidentining “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-73-son qarori: <https://lex.uz/uz/docs/-7499721>
3. Avliyoqulov N. X. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016.
4. Xodjayev B. X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
5. Mirzayeva S. T. Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
6. Dewey J. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 1916.
7. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978.
8. Freire P. Pedagogy of the Oppressed. – New York: Continuum, 2000.
9. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. – New York: Basic Books, 1983.
10. Zemach D., Broudy D., Valvona C. Writing Research Papers: From Essay to Research Paper. – Macmillan, 2020.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.